

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

VOXIDOV OYBEK ROZIQOVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI
RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024-yil

UDK: 336.5(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Огловления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Voxidov Oybek Roziqovich

О‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash
yo‘llari.....5

Вохидов Ойбек Розикович

Пути укрепления ресурсной базы коммерческих банков Республики
Узбекистан.....29

Vokhidov Oybek Rozikovich

Ways to strengthen the resource base of commercial banks of the Republic of
Uzbekistan.....55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

VOXIDOV OYBEK ROZIQOVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI
RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Iqt2432 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Burxanov Aktam Usmanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Qo'ziyeva Nargiza Ramazonovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Absalamov Akram Tolliboyevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

«Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 19 04 soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14.07 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 4 04 kuni tarqatildi.
(2024-yil 4 04 dagi 25 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor;

Saqulov

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor;

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor.

Xudoyqulov

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda tijorat banklari aktivlari va passivlari sifatini oshirish bank tizimi faoliyatining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib, mijozlarning kreditlarga talabini qondirish, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlashnishing zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu esa tijorat banklarida resurslar manbaini kengaytirish va ularning barqarorligini taʼminlash hamda aktivlar hajmini oshirish orqali bir tomondan ularning moliyaviy barqarorligini taʼminlash boʻlsa, ikkinisi tomondan iqtisodiy oʻsishga turtki berish jihatidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, AQSH Federal depozitlarni sugʻurtalash korporatsiyasi (The Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC)) maʼlumotlariga koʻra “AQSH bank tizimida depozitlarning umumiy hajmida talab qilib olinguncha boʻlgan depozitlarning salmogʻi 20 foizdan oshmasligi taʼminlangan”.¹ Bu oʻz navbatida tijorat banklari resurslari barqarorligini taʼminlagan holda bank aktivlari daromadliligi va likvidliligi taʼminlash va pirovard natijada, tijorat banklari moliyaviy barqarorlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jahonda tijorat banklari resurslari barqarorligini taʼminlash, banklarda transformatsiya riskini va valyuta risklarini kamaytirish orqali aktiv operatsiyalarining daromadliligi va ularning risklilik darajasi oʻrtasidagi mutanosiblikni taʼminlash, tijorat banklarining xalqaro fond bozoriga chiqishi va mablagʻlarini jalb etishiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tijorat banklari resurslari tarkibidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, resurs jalb qilish manbalarini kengaytirish, xalqaro miqyosda tijorat banklarining inqirozga yuz tutishi xavfini pasaytirish, tijorat banklari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, moliya bozorida mijozlarni kreditga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish, xalqaro miqyosda tijorat banklari resurs bazasini yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Oʻzbekistonda moliya bozorining asosiy elementini tijorat banklari tashkil etib, bank tizimida davlat ulushini pasaytirish, banklar rentabellik koʻrsatkichlarini oshirish, aholiga qulay va jozibali innovatsion xizmatlarni koʻrsatishni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi boʻlmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish hamda banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish”² borasida vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda tijorat banklari resurslari mustahkamligini taʼminlash va resurs jalb qilishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://www.fdic.gov> AQSH Federal Depozitlarni Sugʻurtalash Korporatsiyasi (FDIC) rasmiy sayti statistik maʼlumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

²Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklari resurslari bazasini mustahkamlashning ilmiy-amaliy va metodologik jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan R.Han, M.Melecky, S.Mushtaq, D.Siddiqi, L.Lin, J.Eisenschmidt, F.Smets, D.Broby, D.Andolfatto, L.Gambacorta, H.S.Shin, F.H.Raisse, M.Lé, D.Thesmar, D.Kim, W.Sohn, A.Garel, A.Petit-Romec, J.Hugonnier, E.Morellec va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o‘rganilgan³.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.X.Jumayev, A.U.Burxanov, Sh.Z.Abdullayeva, O.B.Sattarov, B.T.Berdiyarov, A.T.Absalamov, I.I.Jo‘rayev, B.U.Shermuxamedov, A.Bektemirov, D.M.Malikova va boshqalar mamlakatimizda tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash va unda monetar siyosatning ahamiyati, banklarda resurs bazasini mustahkamlash orqali moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash, Bazel qo‘mitasining bank nazoratiga oid yangi talablari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to‘lov qobiliyatini ta‘minlash masalalari, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo‘llari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan⁴.

³. Han, R., & Melecky, M. (2013). Financial inclusion for financial stability: Access to bank deposits and the growth of deposits in the global financial crisis. *World Bank policy research working paper*, (6577). Mushtaq, S., & Siddiqi, D. A. (2017). Effect of interest rate on bank deposits: Evidences from Islamic and non-Islamic economies. *Future Business Journal*, 3(1), 1-8. Lin, L. (2020). Bank deposits and the stock market. *The Review of Financial Studies*, 33(6), 2622-2658. Jens Eisenschmidt and Frank Smets (2019). Negative Interest Rates: Lessons from the Euro Area. *European Central Bank Working Paper*. Broby, D. (2021). Financial technology and the future of banking. *Financial Innovation*, 7(1), 1-19. Andolfatto, D. (2021). Assessing the impact of central bank digital currency on private banks. *The Economic Journal*, 131(634), 525-540. Gambacorta, L., & Shin, H. S. (2018). Why bank capital matters for monetary policy. *Journal of Financial Intermediation*, 35, 17-29. Fraisse, H., Lé, M., & Thesmar, D. (2020). The real effects of bank capital requirements. *Management Science*, 66(1), 5-23. Kim, D., & Sohn, W. (2017). The effect of bank capital on lending: Does liquidity matter?. *Journal of Banking & Finance*, 77, 95-107. Garel, A., & Petit-Romec, A. (2017). Bank capital in the crisis: It’s not just how much you have but who provides it. *Journal of Banking & Finance*, 75, 152-166. Hugonnier, J., & Morellec, E. (2017). Bank capital, liquid reserves, and insolvency risk. *Journal of Financial Economics*, 125(2), 266-285.

⁴Jumayev N.X., Nurmuratov A.M. (2019). Основные направления модернизации системы валютного регулирования в Узбекистане в условиях либерализации экономики. In *Инновационные научные исследования в современном*

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash muammolarini ilmiy ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llariga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etish;

tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash borasida ilmiy-nazariy qarashlar va uning metodologik asoslarini o'rganish;

tijorat banklari majburiyatlarining amaldagi holatini tahlil qilish;

tijorat banklari kapitali tarkibi va o'zgarishi dinamikasini baholash;

tijorat banklari resurs bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llarini o'rganish va umumlashtirish natijasida zarur tavsiyalar shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklari olingan.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, ekonometrik tahlil, qiyosiy va tarkibiy tahlil, iqtisodiy-statistik va ekspert baholash usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

depozit foiz instrumenti ta'sirchanligini ta'minlash vositasida aholining bo'sh turgan pul mablag'larini bank tizimiga jalb etish orqali bank resurs bazasida barqaror moliyaviy mablag'lar hissasini oshirish hamda resurs bazasini mustahkamlash taklifi asoslangan;

мире: теория, методология, практика (pp. 80-89).; Вурханов А.У. (2020). Кредитование инвестиционных проектов: проблемы и решения (на примере коммерческих банков). *Молодой ученый*, (25), 210-213.; Burkhanov, A. (2020). Indicators to assess financial security of the banks *Архив научных исследований*, (27)., Abdullayeva Sh.Z. (2005). Bank risklari va kreditlash/ Darslik, Toshkent-Iqtisod-moliya. Xoshimov, E. A. (2020). Проблемы монетарной политики в условиях цифровизации. *Studies*, 16, 1203-1238. Berdiyarov B.T (2020) O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 73 b. Sattarov O.B. (2015). Bazel Qo'mitasining bank nazoratiga oid yangi talablari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. – Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnal 4-son. 7 bet., O.B.Sattarov (2018). O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent., Absalamov A.T. (2020). O'zbekiston Respublikasi markaziy banki pul-kredit siyosati transmission mexanizmini takomillashtirish yo'llari/ i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent., B.U.Shermuxamedov (2020). Tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish yo'llari. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent., Jo'rayev I.I. (2020). O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent., Bektemirov, A., Malikova, D. M., & Bo'tayev, J. E. (2023). Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. *Journal of marketing, business and management*, 2(2), 167-174.

bank raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga yo'naltirilgan bozor mexanizmlarini asosida faoliyat yuritish, resurs bazasini diversifikatsiya qilish maqsadida "greenbond" shaklidagi innovatsion moliyaviy vositalarni muomalaga chiqarish taklif etilgan;

O'zbekiston tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish jarayonida muddatli depozitlar foizi va uning hajmiga moliya bozori instrumentlarining ta'sirini strukturaviy vektorli avtoregressiya baholash modeli orqali bank resurs bazasini mustahkamlash asoslangan;

AT O'zsanoatqurilishbank depozitlari hajmini oshirishning inflyatsiya darajasi o'zgarishi bilan bog'liq jihatlarini ifodalovchi ekonometrik baholash modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ssenariylari taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

bankka jalb etilgan moliyaviy resurslar tarkibida barqaror resurslarning salmog'ini oshirish orqali bank majburiyatlarining barqarorligini oshirish ilmiy asoslangan;

Markaziy bank qayta moliyalash foizining oldingi oyda bir foizga oshishi keyingi oyda AT O'zsanoatqurilishbank qisqa muddatli depozitlari foizini 0,42 foizga oshirishi aniqlangan;

pul bozorida foiz stavkaning oldingi oyda bir foizga oshishi AT O'zsanoatqurilishbank qisqa muddatli depozitlari foizini keyingi oyda 0,22 foizga oshirishi aniqlangan;

muomaladagi pul massasining bir foizga oshishi ikki oylik lag bilan AT O'zsanoatqurilishbank qisqa muddatli depozitlari hajmini 0,31 foizga oshirishini aniqlangan;

iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining bir foizga oshishi ikki oylik lag bilan AT O'zsanoatqurilishbank qisqa muddatli depozitlari hajmini 0,04 foizga oshirishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilinganligi, ilg'or xorij tajribasi o'rganilganligi va umumlashtirilganligi, shuningdek, statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va O'zbekistondagi tijorat banklarining yillik hisobot ma'lumotlaridan olingani, shu bilan birga tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy ahamiyatdagi xulosa va takliflardan tijorat banklari resurslari bazasining barqarorligini ta'minlash hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni mamlakatimiz tijorat banklari resurslari bazasining mustahkamligini ta'minlash yo'llariga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab

chiqishda foydalaniladi, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hamda tijorat banklari xizmatlari ommabopligini oshirishda ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llariga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

depozit foiz instrumenti ta'sirchanligini ta'minlash vositasida aholining bo'sh turgan pul mablag'larini bank tizimiga jalb etish orqali bank resurs bazasida barqaror moliyaviy mablag'lar hissasini oshirish hamda resurs bazasini mustahkamlash taklifi ATB O'zsanoatqurilishbank tomonidan amaliyotga joriy etilgan (ATB O'zsanoatqurilishbankning 2023-yil 3-maydagi 07-03/3098-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zsanoatqurilishbank ATB umumiy depozitlari tarkibida jismoniy shaxslar depozitlari 2020-yilda 18,5 foizdan 2022-yilda 27,8 foizga oshirilgan bo'lsa, bankning muddatli depozitlari tarkibida jismoniy shaxslar depozitlarining ulushi 2020-yilda 28,6 foizdan 2022-yilda 39,9 foizga oshirishga erishilgan;

bank raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga yo'naltirilgan bozor mexanizmlarini asosida faoliyat yuritish, resurs bazasini diversifikatsiya qilish maqsadida "greenbond" shaklidagi innovatsion moliyaviy vositalarni muomalaga chiqarish taklifi ATB O'zsanoatqurilishbank tomonidan amaliyotga joriy etilgan (ATB O'zsanoatqurilishbankning 2023-yil 3-maydagi 07-03/3098-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, "O'zsanoatqurilishbank" ATB resurs bazasini innovatsion mahsulotlar asosida diversifikatsiya qilish imkoni yaratilgan;

O'zbekiston tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish jarayonida muddatli depozitlar foizi va uning hajmiga moliya bozori instrumentlarining ta'sirini strukturaviy vektorli avtoregressiya baholash modeli orqali bank resurs bazasini mustahkamlash ATB O'zsanoatqurilishbank tomonidan amaliyotga joriy etilgan (ATB O'zsanoatqurilishbankning 2023-yil 3-maydagi 07-03/3098-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zsanoatqurilishbank ATB depozitlar foiziga hamda uning hajmining o'zgarishiga moliya bozori instrumentlarining ta'siri oshib, muomaladagi pul massasining bir foizga oshishi bank muddatli depozitlari hajmini 0,31 foizga oshirishi hamda pul bozoridagi banklararo depozitlar foizining bir foizga oshishi bank muddatli depozitlari foizini 0,21 foizga oshirishi ekonometrik strukturaviy vektor avtoregressiya (SVAR) model orqali aniqlangan va asoslab berilgan;

AT O'zsanoatqurilishbank depozitlari hajmini oshirishning inflyatsiya darajasi o'zgarishi bilan bog'liq jihatlarini ifodalovchi ekonometrik baholash modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ssenariylari ATB O'zsanoatqurilishbank tomonidan amaliyotga joriy etilgan (ATB O'zsanoatqurilishbankni 2023-yil 3-maydagi 07-03/3098-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, ATB O'zsanoatqurilishbank umumiy depozitlarning kreditlariga nisbati 2021 va 2022-yillarda 30 foizdan yuqori darajada saqlanishi ta'minlangan.

Shuningdek, optimal ssenariyga ko‘ra, bank depozitlarining umumiy hajmi 2027-yilda 23478 mlrd.so‘m bo‘lishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash-ning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashning ilmiy-nazariy asoslari, tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash borasida ilmiy-nazariy qarashlar hamda tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini ta‘minlashni me‘yoriy-huquqiy asoslari kabi masalalar tadqiq etilgan hamda bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Bugungi kunda jahonning aksariyat davlatlarida tijorat banklari moliya bozorining muhim lokomotivlariga aylanib bo‘lgan. Banklar bo‘sh turgan pul mablag‘larini o‘zida jamlab iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini kreditlash orqali iqtisodiy o‘shishga erishishda katta hissa qo‘shib kelmoqda. Tijorat banklarida resurs bazasining katta qismi jalb qilingan mablag‘lar tashkil etishini inobatga olib, ushbu resurs bazasining mustahkamligini, uning optimal joylashganligini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tijorat banklari depozitlari barqarorligini ta‘minlash, ushbu depozitlarga ta‘sir qiluvchi omillar tahliliga bahishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarni talaygina topishimiz mumkin.

Xususan, S.Andros va boshqalar depozitlar tarkibi bo‘yicha bank depozit portfelining iqtisodiy va statistik tahlilini o‘tkazishgan. Ular tomonidan bank omonatlarini mijoz turi, summasi, muddati va foiz stavkasi bo‘yicha guruhlash algoritmi taklif etilib, tahlillar amalga oshirilgan. Har bir depozit turining foiz to‘lovlarining umumiy o‘shishiga ta‘siri aniqlangan. Ilmiy tadqiqotlarining maqsadi depozitlar tarkibini iqtisodiy va statistik tahlil qilishdan foydalangan holda bank depozit portfelini samarali boshqarishga uslubiy yondashuvni takomillashtirishdan

iborat bo'lgan. Tahlil natijalariga ko'ra, bankning optimal depozit portfelini shakllantirishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Banklarda mijozlarning qarz mablag'larini boshqarish jarayonini optimallashtirish uchun matematik apparatlardan foydalanish zarurligi ta'kidlangan.⁵

R.Han va M.Melecky inqiroz davrida bank depozitlari xarakterini o'rganishgan. Xususan, inqiroz davrida omonatchilar xavotirga tushishadi, banklardan omonatlarini qaytarib olishga urinishadi. Ularning fikricha "agar bank depozitlari ko'proq diversifikatsiyalangan bo'lsa, ya'ni ko'proq jismoniy shaxslarga tegishli bo'lsa, bank omonatlarini o'zaro bog'liq holda olib qo'yishni kamaytirish mumkin. Ushbu maqola 2008-yil inqirozigacha bo'lgan bank depozitlariga kengroq kirish imkoniyati va inqiroz davridagi bank depozitlarining o'sish dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi, shu bilan birga tegishli kovariatsiyalarni nazorat qiladi. Omonatlarga kirish va bank depozitlaridan foydalanish uchun ishonchli shaxslardan foydalangan holda, mualliflar bank depozitlariga kengroq kirish banklarning depozitlarni moliyalashtirish bazasini moliyaviy tanglik davrida yanada mustahkamroq qilishini aniqlaydilar. Shunday qilib, moliyaviy barqarorlikni oshirish siyosati nafaqat makroprudensial tartibga solishga, balki bank depozitlariga kengroq kirishning moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sirini ham tan olishi kerak"⁶.

Jens Eisenschmidt va Frank Smets (2019) Yevropa Markaziy banki ekspertlari hisoblanishib, ular 2014-iyundan 2016-yilgacha qadar Yevropa Markaziy bankining depozitlar uchun belgilagan -0,40 manfiy foiz stavkalarining ta'sirini o'rganishgan. Xususan, ular tomonidan ushbu manfiy depozit foiz stavkalarining yevro hududda joylashgan tijorat banklar depozitlari va kreditlari foiziga va ularning hajmiga ta'sirini tahlil qilishgan.⁷ Shuni ta'kidlashimiz lozimki, depozitlar uchun manfiy foiz stavkalar davlatlar amaliyotida qo'llanilmagan. Yevropa Markaziy banki tomonidan ushbu manfiy foiz stavkalarining qo'llanilishidan asosiy maqsad deflyatsiyaning oldini olish va monetar kengayishni amalga oshirish hisoblangan. Manfiy foizli siyosatni tahlil qilish natijasida shuni ko'rsatadiki, banklardagi aholining depozitlari foizigina manfiy foizga o'tkazilgan. Boshqa depozitlar xususan, yuridik shaxlar depozitlarining foizi, davlat qimmatli qog'ozlarining foizi, va xatto nomoliyaviy korporatsiyalar depozitlarining foizi manfiy darajaga o'tmagan. Shunday ekan rivojlangan davlatlarda markaziy banklar foiziga aholi depozitlarining foizi juda sezgir hisoblanadi.

R.Iyer va boshqalar tijorat banklarida to'lovga qobilligi bilan depozit bazasidagi o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishgan. Ya'ni tijorat banklarining murtligi uning depozit bazasiga qanchalik ta'siri borligini o'rganishgan. Tahlil natijalariga ko'ra, oddiy mijozlarga qaraganda bankdan kredit olgan mijozlar yoki bank xodimlaridan iborat mijozlar depozitlari bankda to'lov qobiliyati xavfining vujudga kelishiga sokinlik bilan javob berishgan bo'lsa, ammo to'lov qobiliyatidagi katta xavfga barcha turdagi mijozlar sezgirlik bilan javob berishgan. Shu bilan birga, bankga

⁵ Andros, S., Akimova, L., & Butkevich, O. (2020). Innovations in management of banks deposit portfolio: structure of customer deposit.

⁶ Han, R., & Melecky, M. (2013). Financial inclusion for financial stability: Access to bank deposits and the growth of deposits in the global financial crisis. *World bank policy research working paper*, (6577).


⁷ Jens Eisenschmidt and Frank Smets (2019). Negative Interest Rates: Lessons from the Euro Area. *European Central Bank Working Paper*.

uzoq yillar davomida mijoz bo‘lganlar bankda vujudga kelgan to‘lov qobilligi bilan bog‘liq muammolarga qarshi depozitlarini olib ketishgan shoshilmagan⁸.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasining amaldagi holati va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida tijorat banklari majburiyatlarining amaldagi holati tijorat banklari kapitali tarkibi va o‘zgarishi dinamikasi tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy ishda tijorat banklari resurs bazasi barqarorligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli ham keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish uchun birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

2016-yilga qadar O‘zbekiston bank tizimidagi moliyaviy resurslar YAIMning 35-40 foizi atrofida bo‘lgan va bu ko‘rsatkich iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Ya’ni bankdan tashqarida pul aylanishi yuqori bo‘lganligi uchun, tijorat banklarimiz ishlab chiqarishni kreditlari yetarli darajada yuqori bo‘lmagan. 2017-yildan keyingi davrga nazar tashlasak, tijorat banklari resurslarining YAIMdagi salmog‘i sezilarli oshib borgan.




1-rasm. O‘zbekiston tijorat banklarining yalpi ishlab chiqarishdagi o‘rni (mlrd.so‘mda)⁹.

Xususan, 2016-yilda bank resurslarining YAIMdagi ulushi 32,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich oxirgi yillarda doim oshib borgan holda 2022-yil yakuniga kelib 62,7 foizni tashkil qilgan.

Shu bilan birga tijorat banklarining jami resurslari ham katta miqdorda oshgan. Jumladan, 2016-yil oxirida tijorat banklari resurslari 84,07 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 556,75 trln.so‘mga yetgan.

⁸ Iyer, R., Puri, M., & Ryan, N. (2016). A tale of two runs: Depositor responses to bank solvency risk. *The Journal of Finance*, 71(6), 2687-2726.

⁹ O‘zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




2-rasm. Tijorat banklari resurslari tarkibida majburiyatlarining ulushi o'zni (mlrd.so'mda)¹⁰.

Oxirgi olti yil ichida bank resurslari keskin oshgan. Albatta bank resurslari tarkibida xorijiy valyutadagi resurslar ham mavjud bo'lib, 2017-yil 5-sentyabrdagi valyuta siyosatini liberallashtirish natijasida bank resurslarining so'mdagi qiymati ham keskin oshgan.

Mamlakatimiz bank tizimidagi majburiyatlarga nazar solsak, bunda 2016-yilda 75,1 trln.so'm, 2017-yilda 145,9 trln.so'm bo'lgan. 2022-yil yakuniga ko'ra 477,2 trln.so'mga o'zgargan. Shu olti yil davomida bank tizimi majburiyatlari olti martaga oshgan. Tijorat banklari majburiyatlarining keskin oshishi nafaqat davlat ulushi mavjud banklarda balki, barcha turdagi banklarda ham oshgan.

Statistikaga e'tibor qaratgan holda aytishimiz mumkinki, oxirgi olti yilda bank tizimi imida majburiyatlar oshishi depozitlar oshishidan kuchliroq bo'lgan. Xususan, bank tizimi majburiyatlari oxirgi olti yilda 535,4 foizga oshgan bo'lsa, bank tizimi depozitlari 482,9 foizga oshgan.




3-rasm. Bank tizimida depozitlarning tutgan o'zni (mlrd.so'mda)¹¹.

¹⁰ O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


¹¹ O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Davlat ulushi mavjud banklarda doim jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari katta rol o‘ynamagan. Chunki xukumat o‘ziga qarashli tijorat banklarini doim arzon va barqaror moliyaviy resurslar bilan qo‘llab-quvvatlab keladi.



4-rasm. Tanlangan tijorat banklarida depozitlarning tutgan o‘rni.¹²

Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamligini bildiruvchi ko‘rsatkichlardan biri bu – bank kreditlarining depozitlar bilan ta‘minlan-ganlik ko‘rsatkichidir.




5-rasm. Tijorat banklarida kreditlarning depozitlar bilan ta‘minlangan holati.¹³

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklarda depozitlar barqarorligi yuqori va kreditlar asosan yig‘ilgan depozitlar hisobiga berilmoqda. Aksincha, davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklarida esa kreditlarning katta qismi depozitlardan tashqari boshqa resurslardan berilmoqda.


¹² O‘zbekiston Markaziy bankinging rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹³ O‘zbekiston Markaziy bankinging rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



6-rasm. Tanlangan tijorat banklarida kreditlarning depozitlar bilan ta'minlangan holati.¹⁴

2023-yil 1-yanvar holatiga tahlili qiladigan bo'lsak, AT Asakabankda depozitlarning umumiy kreditlarga nisbati 39,3 foizni, ATB Turonbankda esa 37,0 foizni, hamda AT O'zsanoatqurilishbankda esa 31,0 foizni tashkil etgan. Ya'ni AT Asakabank hamda ATB Turonbanklarda depozitlarning umumiy kreditlarga nisbati keskin pasayib ketgan.



7-rasm. Aholi depozitlarining iqtisodiyotda va bank tizimida tutgan o'rni.¹⁵

Xususiy banklardan XAT Trastbank statistikasini tahlil qiladigan bo'lsak, unda ushbu bankda depozitlarning kreditlarga nisbati juda yuqori darajada bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga depozitlarning umumiy

¹⁴ O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁵ O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

kreditlarga nisbati 204,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa 180,0 foizni tashkil qilgan.

Aholi depozitlari nafaqat tijorat banklari depozitlari tarkibida balki butun iqtisodiyotda ahamiyati yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Agar aholi depozitlari tijorat banklarida oshib borsa, bu o'z navbatida aholining bank tizimiga ishonchi yuqorilayotganligidan dalolat beradi.

Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, aholi depozitlarining YAIMga nisbati 2018-yil 1-yanvar holatiga 3,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 7,1 foizni tashkil etgan holda, ko'rilayotgan davrda doimiy o'sishda bo'lgan. Shuningdek, aholi depozitlarining bank tizimi resurslaridagi salmog'i ham doimiy o'sishda bo'lib, 2018-yil 1-yanvar holatiga 7,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 11,3 foizni tashkil etgan.

1-jadval.

Tanlangan banklarda aholi depozitlarining tutgan o'rni (mlrd.so'mda).¹⁶

Ko'rsatkichlar	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
ATB O'zsanoatqurilishbank				
Jami depozitlari	8 069,00	11 437,00	12 607,00	14 884,00
Yuridik shaxslar depozitlari	6 380,00	9 323,00	9 289,00	10 751,00
Jismoniy shaxslar depozitlari	1 689,00	2 114,00	3 319,00	4 132,00
Jismoniy shaxslar depozitlarining umumiy depozitlardagi ulushi	20,93%	18,48%	26,33%	27,76%
Asakabank AJ				
Jami depozitlari	8 115,00	9 705,00	10 729,00	14 431,00
Yuridik shaxslar depozitlari	6 770,00	8 193,00	8 474,00	11 713,00
Jismoniy shaxslar depozitlari	1 344,00	1 512,00	2 256,00	2 718,00
Jismoniy shaxslar depozitlarining umumiy depozitlardagi ulushi	16,56%	15,58%	21,03%	18,83%
ATB Turonbank				
Jami depozitlari	1 530,00	2 116,00	2 838,00	3 493,00
Yuridik shaxslar depozitlari	901,00	1 334,00	1 713,00	2 211,00
Jismoniy shaxslar depozitlari	629,00	782,00	1 125,00	1 282,00
Jismoniy shaxslar depozitlarining umumiy depozitlardagi ulushi	41,11%	36,96%	39,64%	36,70%
XAT Trastbank				
Jami depozitlari	2 799,00	3 672,00	5 448,00	6 293,00
Yuridik shaxslar depozitlari	2 361,00	3 097,00	4 632,00	5 488,00
Jismoniy shaxslar depozitlari	438,00	575,00	816,00	805,00
Jismoniy shaxslar depozitlarining umumiy depozitlardagi ulushi	15,65%	15,66%	14,98%	12,79%

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, aholi depozitlarining 2020 va 2021-yillarda bank tizimidagi umumiy majburiyatlarida va depozitlarigi salmog'i tebranishda bo'lganligiga sabab sifatida pandemiya holatini keltirishimiz mumkin.


¹⁶ O'zbekiston Markaziy bankinging rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, aynan pandemiya holati aholining jamg’armalarini kamaytirib yubordi.

Tanlangan banklarda faqatgina ATB Turonbankda aholi depozitlarining umumiy depozitlardagi salmog’i qolgan tijorat banklaridan ancha yuqori bo’lgan. Bu o’z navbatida ushbu bankda aholi depozitlarini jalb qilish bo’yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Bank tizimida aholi depozitlarining tutgan o’rnini tahlil qilgan bo’lsak, quyida yana muhim ko’rsatkichlardan biri bu depozitlarning muddatlariga ko’ra turlaridir.

Tahlil natijalaridan ko’rishimiz mumkinki, bank tizimida talaq qitlib olinguncha depozitlar 2017-yil 1-yanvar holatiga talab qilib olinguncha bo’lgan depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog’i 58 foizni tashkil qilgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi depozitlari tarkibida muddatli depozitlar 124,2 trln.so’mga oshgan bo’lsa, talab qilib olinguncha bo’lgan depozitlar esa 92,5 trln so’mga oshgan. Ammo bank tizimidagi depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha bo’lgan depozitlarning salmog’i sezilarli kamaygan va 40 foizni tashkil qilgan.




8-rasm. Bank tizimida depozitlarning muddatiga ko’ra turlari (mlrd.so’mda).¹⁷

Bank tizimida muddatli depozitlar barqaror resurs manbai bo’lib xizmat qiladi. Aynan ushbu resurslardan tijorat banklari kreditlar ajratishi va iqtisodiyot ishlab chiqarishning oshishiga xizmat qilishi mumkin. Xalqaro ekspertlarning hamda Xalqaro valyuta fondi tavsiyasiga ko’ra tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo’lgan depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog’i 30 foizdan oshmagani ma’qul. Bizning tahlilimizga ko’ra tijorat banklarida talab qilib olinguncha bo’lgan depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog’i yuqoriligicha qolmoqda.

Tijorat banklarida resurs bazasining barqarorligini ifodalovchi keyingi ko’rsatkichlardan biri bu bankdagi depozitlarning valyuta birliklariga ko’ra taqsimlanishidir. Davlat bank tizimida depozitlar milliy valyutada saqlanadigan bo’lsa, birinchidan milliy valyutaga talabni oshirib uning almashinuv kursini yaxshilashga

¹⁷ O’zbekiston Markaziy bankinging rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


xizmat qilsa, ikkinchidan milliy bank tizimining turli tashqi iqtisodiy, siyosiy, yoki turli sanksiyalarga ta'sirchanligi past bo'ladi.



9-rasm. Bank tizimida depozitlarning valyuta birligiga ko'ra turlari (mlrd.soʻmda).¹⁸

Bank tizimida xorijiy valyutadagi depozitlarning jami depozitlardagi salmog'ini ko'radigan bo'lsak, unda 2017-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 22 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ham 22 foiz atrofida bo'lmoqda. Ammo 2018-yilda xorijiy valyutadagi depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog'i keskin oshgan holda 41 foizni tashkil qilgan. Bunga sabab sifatida 2017-yil 5-sentyabrdagi rasmiy keskin devalvatsiya hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz bank tizimida xorijiy valyutadagi depozitlarning umumiy depozitlardagi salmog'i selilarli darajada saqlanib qolmoqda. Ushbu holat inflyatsiya importini kuchaytirgan holda, makroiqtisodiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.




10-rasm. Bank tizimida alternativ resurs jalb qilish holati (mlrd.soʻmda).¹⁹

¹⁸ O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁹ O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tijorat banklari resurs bazasi barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri depozitlar hajmi ekanligiga xech kim shubxa bilan qaramasligi aniq. Ammo tijorat banklari faqatgina depozitlarga bog'lanib qolishlari kerak emas. Tijorat banklari o'zlari uchun alternativ resurs manbalarini kashf qilishlari lozim. Ushbu manbalar sifatida qimmatli qog'ozlari bozori rivojlangan davlatlarda keng rivojlangan. Mamlakatimiz tijorat banklari ham oxirgi yillarda nafaqat ichki qimmatli qog'ozlar bozorlarida balki xalqaro fond bozorlarida ham faol qatnashib kelishmoqda.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bozoridagi ishtiroki sezilarli jonlangan bo'lsada, ammo umumiy resurlariga nisbati 3-5 foizni tashkil qilishi, bu sohada ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligidan dalolat beradi.



11-rasm. Bank tizimi kapitali va uning o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'mda).²⁰


Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda tijorat banklari kapitali oxirgi yetti yilda keskin oshgan. Xususan, 2017-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari kapitali 8,98 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 79,56 trln.so'mga yetgan va ko'rilgan davr oralig'ida to'qqiz barobarga yaqin oshgan.

Tijorat banklari ustav kapitalida davlat ulushi mavjud banklar kapitalini tahlil qiladigan bo'lsak, unda 2017-yil 1-yanvar holatiga ushbu banklar kapitali 6,57 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich o'n barobarga yaqin ko'payib 61,87 trln.so'mni tashkil qildi.

Davlat ulushi mavjud banklar kapitalidagi katta o'zgarish 2019-yilda kuzatildi. Xususan, 2019-yil 5-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi O'RQ-580-son va 2019-yil 11-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi O'RQ-582-son Qonunlarining yangi tahrirlari qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli


²⁰ O'zbekiston Markaziy bankinging rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

qarorlariga muvofiq davlat ulushiga ega banklar kapitaliga hukumat tomonidan 2019-yil 1,9 mlrd.AQSH dollari miqdorida mablag‘lar yo‘naltirildi.



12-rasm. Davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklari kapitali va uning o‘zgarish dinamikasi (mlrd.so‘mda).²¹

Davlat ulushi mavjud bo‘lmagan tijorat banklari ustav kapitalining oldingi yillarga nisbatan o‘zgarishi davlat ulushi mavjud banklardan farqli ravishda doim yuvori ko‘rsatkichlarda oshib borgan. Xususan, 2019-yilda keyingi davrda ushbu banklar kapitalining yillik o‘zgarishi 35 foiz atrofida bo‘lgan.




13-rasm. I va II darajali kapital o‘zgarishi (mlrd.so‘mda).²²

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bank tizimida birinchi darajali kapital 2017-yil 1-yanvar holatiga umumiy kapital tarkibida salmog‘i 86 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga 80 foizga tushgan.

²¹ O‘zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

